

TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI DAVLAT RO'YXATIDAN (QAYTA DAVLAT RO'YXATIDAN) O'TKAZISHDA QONUNCHILIK HUJJATLARIGA MUVOFIQ MA'MURIY HUJJATLARNI SUDGACHA KO'RIB CHIQISH

Fayziev Xayriddin Sirojiddinovich

*O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi
huzuridagi yuridik kadrlarni qayta tayyorlash va
malakasini oshirish instituti
Pedagoglar markazi mudiri v.b.;
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)*

Annotatsiya: Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan (qayta davlat ro'yxatidan) o'tkazish jarayonlari qonunchilik hujjatlari asosida vakolatli organlar tomonidan amalga oshiriladi va ma'muriy jarayonlarning bir qismi sifatida namoyon bo'ladi. Maqolada ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqish instituti, uning maqsadi, tartibi va qonunchilik me'yorlari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Davlat ro'yxatidan o'tkazish, qayta ro'yxatdan o'tkazish, tadbirkorlik subyektlari, adliya vazirligi, apellyatsiya, shikoyat, ma'muriy sudlar.

Файзиев Хайриддин Сирожиддинович

*и.о. заведующего центром педагогов
института по переподготовке и повышения
квалификации юридических кадров при
Министерство юстиции Республики Узбекистан,
доктор философии (PhD) по юридическим наукам*

Аннотация: Процессы государственной регистрации (перерегистрации) субъектов предпринимательства осуществляются уполномоченными органами на основании актов законодательства и выступают в качестве части административных процессов. В статье анализируется институт досудебного рассмотрения административных документов, его цель, порядок и законодательные нормы.

Ключевые слова: Государственная регистрация, перерегистрация, субъекты предпринимательства, Министерство юстиции, апелляция, жалоба, административные суды.

Fayziev Khayriddin Sirozhiddinovich

*Training Institute for lawyers
Acting Head of the Pedagogical Center;
Doctor of Philosophy (PhD) in Legal Sciences*

Abstract: *The processes of state registration (re-registration) of business entities are carried out by authorized bodies on the basis of legislative acts and are manifested as part of administrative processes. The article analyzes the institution of pre-trial review of administrative documents, its purpose, procedure, and legal norms.*

Keywords: *State registration, re-registration, business entities, Ministry of Justice, appeal, complaint, administrative courts.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida tadbirkorlik faoliyatini doimiy ravishda qo'llab-quvvatlab borish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Davlat ro'yxatidan o'tkazish tadbirkor qonuniy faoliyat yuritishiga asos bo'luvchi birinchi va eng muhim huquqiy bosqichdir. Shuning bilan birga, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish — mamlakat iqtisodiyotning rivojlanishi, soliq bazasining shakllanishi hamda qonuniy biznes muhitini ta'minlashda muhim jarayonlardan biridir.

Ushbu jarayonlarda hujjatlarni noto'g'ri rasmiylashtirish, asossiz rad etish yoki boshqa qonunbuzarlik holatlari yuz berishi ham mumkin. Bunday holatlar tadbirkorlik subyektlarining manfaatlarini himoya qilish, mavjud muammolarni tezkorlik bilan, sudgacha hal etish mexanizmlarining huquqiy asoslarini joriy etish zarurligini anglatadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda mavzu doirasidagi masala xususida yuzaga keladigan muammo va nizolarni sudgacha hal etishning zamonaviy mexanizmlari joriy qilinib, samarali ishlamoqda. Chunki o'zaro kelishuv bitimi tuzish yoki nizoni hal etishning boshqa muqobil usullaridan foydalanish, sud orqali nizolashishdan ko'ra ham qulay, ham kamxarajatlik bo'ladi.

Masalan, Angliyada sudgacha bo'lgan jarayonlar ma'muriyat ixtiyoriga ko'ra ma'muriy qarorlarni qayta ko'rib chiqish, ma'muriy shikoyatlar, qonuniy so'rovlar va tribunallarga murojaatlar bo'yicha shikoyat qilish tartib-qoidalarining bir qismi sifatida mavjud. Muvofiqlashtirish bo'yicha ba'zi sa'y-harakatlarga qaramay, turli xil tinglovlarni tashkil etish, apellyatsiya tartib-qoidalarini va tegishli jihatlar o'rtasida jiddiy farqlar saqlanib qolmoqda, chunki tribunallar hali ham o'z tartib-qoidalarini belgilashi mumkin. Ombudsmanlarni turli davlat idoralari va xususiy bo'limlar uchun topish mumkin. Ularning tavsiyalari, odatda, bajariladi. Angliya va Uelsda sud tartib-qoidalarini qonuniy vakillik talabi tufayli qimmatga tushadi va shuning uchun ombudsmanlar fuqarolarning sudga murojaat qilish imkoniyatini ta'minlash uchun o'rinbosar rolini o'ynaydi¹.

Fransiyada asosan qonunchilik bilan o'rnatilgan tartib asosida sudlovni amalga oshiruvchi ma'muriy adliya tizimi mavjud. Ma'muriy sudlar davlat boshqaruvi hujjatlariga qarshi ishlarni ko'radi. Apellyatsiya instansiyalari - ma'muriy apellyatsiya sudlari, ma'muriy oliy sud - Davlat Kengashi (Conseil d'Etat). Ma'muriy organlarga nisbatan

¹Pre-trial Procedures in Administrative Justice Proceedings in England and Wales, France, Germany and the Netherlands, World Bank July 19th, 2010 (<https://documents1.worldbank.org/curated/en/203161468110646088/628330ESW0Box300Proceedings00final0.doc>)

sudgacha ish yuritish ma'muriyatga o'z qarorini qayta ko'rib chiqish imkoniyatini beradi va shuning uchun barcha shikoyatlar sudlarga tushmasligi uchun filtrlash mexanizmi sifatida ishlaydi. Ushbu protsedura odatda ixtiyoriy (recours administratif préalable facultatif yoki RAPF), ammo ba'zi hollarda majburiy (recours administratif préalable obligatoire yoki RAPO). Ushbu sudgacha bo'lgan jarayonlar aktini chiqargan organga (recours gracieux) yoki yuqori turuvchi organga (recours hiérarchique) yo'naltiriladi. Ma'muriy tartib-taomillar yoki sud ishlarini yuritish to'g'risida umumiy qonun mavjud bo'lmagan taqdirda, protsessual jihatlarining aksariyati sud amaliyoti bilan belgilanadi.²

Germaniyada ham ma'muriy adliya tizimi (Widerspruch) mavjud. Protest (Einspruch) va formal shikoyat (formliche Beschwerde) kabi boshqa protseduralar moliyaviy ma'muriyat bilan bog'liq aktlar orqali cheklangan. Umuman olganda, e'tiroz bildirish (istisnolarni hisobga olgan holda), tartibi (majburiy) belgilangan. Ushbu tartib uchta maqsadga xizmat qiladi: ma'muriyatga o'z qarorini tuzatish imkoniyatini berish, ma'muriy sudlarning ish yuklamasini kamaytirish va fuqarolarga kompensatsiya olishning arzon va tezkor usulini ta'minlash. E'tiroz bildirish protsedurasi taxminan 90 foiz hollarda yakuniy qarorga olib keladi. Odatda, e'tiroz qaror chiqargan organga qaratiladi. U e'tirozga rozi bo'lmaganda, ish odatda protseduraning qonuniyligi va maqsadga muvofiqligini ko'rib chiqadigan sudga o'xshash "e'tirozlar qo'mitasi"ga (Widerspruchsbeho'rde) yuboriladi. Uning qarori ustidan ma'muriy sudga murojaat qilish mumkin.³

Mamlakatimizda ham tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan (qayta davlat ro'yxatidan) o'tkazishda yuzaga keladigan muomalalarni sudgacha ko'rib chiqib, hal qilishning huquqiy mexanizmlari yaratilgan. "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunga⁴ ko'ra, tadbirkorlik faoliyati subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tegishli davlat organi tomonidan "bir darcha" prinsipi bo'yicha va, qoida tariqasida, xabardor qilish asosida, qonunchilikda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Ro'yxatdan o'tkazuvchi organlar ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazishni uni tashkil etish maqsadga muvofiq emas, degan vajlar bilan rad etishga yoki unga qonunchilikda nazarda tutilmagan qo'shimcha talablarni belgilashga haqli emas.

Ariza beruvchini tadbirkorlik faoliyati subyekti sifatida davlat ro'yxatidan o'tkazishni rad etganlik, shuningdek davlat ro'yxatidan o'tkazish muddatlarini buzganlik ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin. Ro'yxatdan o'tkazuvchi organing qarori, shuningdek mazkur organ mansabdor shaxslarining harakatlari (harakatsizligi) sud tomonidan qonunga xilof deb

² Goossens, J 2019, Judicial review of administrative action : Impact of the choice between one peak and multiple peak models on legal certainty. in M Belov (ed.), The role of courts in contemporary legal orders. Eleven International Publishing, pp. 225-245. (<https://repository.tilburguniversity.edu/server/api/core/bitstreams/2638f8cf-a6ab-4f4a-b1b7-19f51c0a0ae0/content>)

³ Pre-trial Procedures in Administrative Justice Proceedings in England and Wales, France, Germany and the Netherlands, World Bank July 19th, 2010 (<https://documents1.worldbank.org/curated/en/203161468110646088/628330ESW0Box300Proceedings00final0.doc>)

⁴ <https://lex.uz/mact/2006789>

topilgan taqdirda, ular ariza beruvchiga ro'yxatdan o'tkazishni rad etganlik yoki ro'yxatdan o'tkazish muddatini buzganlik tufayli yetkazilgan zararining o'rnini qoplaydi va ma'naviy zarar uchun kompensatsiya to'laydi (13-modda).

Shuningdek, mazkur qonunda, tadbirkorlik faoliyati subyektlarining davlat organlariga yoki xo'jalik boshqaruvi organlariga arizalar, takliflar va shikoyatlar bilan murojaat etish huquqining kafolatlanganligi (31-modda), davlat boshqaruvi organlari o'z vakolatlari doirasida ularning huquqlari va qonuniy manfaatlari himoya qilinishini ta'minlashi (43-modda) zarurligi mustahkamlab qo'yilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish va hisobga qo'yish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi 2016-yil 28-oktyabrda PQ-2646-son qaroriga asosan Hukumat qarori bilan tasdiqlangan "Tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom⁵ da mazkur subyektlarni davlat ro'yxatidan va qayta ro'yxatdan o'tkazish hamda rad etish uchun asoslarning aniq belgilab qo'yilganligi, jarayonlarda yuzaga kelish ehtimoli bo'lgan ayrim nizoli holatlarni oldini olish uchun xizmat qiladi.

Bundan tashqari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 19-maydagi PQ-188-son qarori⁶ bilan jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishda qo'shimcha qulayliklar yaratish, shuningdek, davlat xizmatlarini ko'rsatishdagi ma'muriy hujjatlar bo'yicha nizolarni sudgacha ko'rib chiqish tizimini takomillashtirish maqsadida 2026-yil 1-iyulga qadar, huquqiy eksperiment tariqasida, Toshkent shahrida qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lmagan ayrim davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqishning yangi tartibi joriy etildi.

Ushbu hujjatga asosan:

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi hamda Toshkent shahar adliya boshqarmasi huzurida apellyatsiya kengashlari (keyingi o'rinlarda — apellyatsiya kengashlari) tashkil etilishi;

ma'muriy organlarning davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasidagi qonunchilik hujjatlariga muvofiq bo'lmagan ma'muriy hujjatlarini apellyatsiya kengashlari tomonidan ko'rib chiqish manfaatdor shaxslarning shikoyatlari hamda davlat xizmatlarini ko'rsatishni monitoring qilish natijalariga ko'ra amalga oshirilishi;

apellyatsiya kengashlarining qarorlari yuzasidan manfaatdor shaxs tomonidan sud tartibida shikoyat qilinishi mumkinligi, ma'muriy organlar uchun esa mazkur qarorlar qat'iy hisoblanishi va ularning ustidan shikoyat qilinishi mumkin emasligi belgilandi.

"Davlat xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha ma'muriy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini sudgacha ko'rib chiqish tartibi to'g'risidagi vaqtinchalik nizom"⁷ bilan

⁵Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 09.02.2017 йилдаги 66-сон қарори
//ex.uz/uz/docs/3111347

⁶lex.uz/uz/docs/7532799

⁷Ўша жойда

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi Apellyatsiya kengashi va Toshkent shahar adliya boshqarmasi huzuridagi Apellyatsiya kengashi (keyingi o'rinlarda — apellyatsiya kengashlari)ning maqomi, asosiy vazifalari, huquq va majburiyatlarini, shuningdek, ularning faoliyatini tashkil etish hamda apellyatsiya kengashlari tomonidan ma'muriy hujjatlarning qonunchilikka muvofiqligini sudgacha ko'rib chiqish tartibi belgilandi.

Mazkur nizom qoidalari arizalar qaysi hududdan berilganidan qat'i nazar, Toshkent shahrida ko'rsatiladigan bir qator davlat xizmatlariga nisbatan, jumladan, tadbirkorlik subyektlarini davlat ro'yxatidan (qayta davlat ro'yxatidan) o'tkazish; tadbirkorlik subyektlari bo'lmagan yuridik shaxslarni (davlat organlari va muassasalari, uy-joy mulkdorlari shirkatlari, yuridik shaxslar birlashmalari, advokatlik tuzilmalarini) davlat ro'yxatidan (qayta davlat ro'yxatidan) o'tkazish holatlariga ham tatbiq etilishi belgilangan.

Apellyatsiya kengashlari tegishliligiga ko'ra respublika darajasidagi davlat organlari va tashkilotlarining hamda ularning Toshkent shahridagi hududiy bo'linmalarining davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq ma'muriy hujjatlarining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini sudgacha ko'rib chiquvchi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lmagan kollegial organlar hisoblanadi.

Apellyatsiya kengashlari vakolatli organlarning tegishli davlat xizmatlari yuzasidan qabul qilgan ma'muriy hujjatlarining qonunchilik hujjatlariga muvofiqligini sudgacha ko'rib chiqish natijasiga asosan ushbu ma'muriy hujjatlarni o'zgartirish, qisman yoki to'liq bekor qilish to'g'risida qarorlar qabul qilish (bundan qonunchilikka muvofiq faqat sud tartibida o'zgartiriladigan yoki bekor qilinadigan hujjatlar mustasno) huquqiga ega.

Umuman olganda, mazkur tartiblar tegishli davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq harakatlarni amalga oshirishga mas'ullarda jarayonlarda qonunchilik hujjatlarining talablariga qat'iy amal qilish zarurligini ta'kidlab, qonunbuzilishlardan tiyilish hissini kuchayishiga xizmat qiladi.

Albatta, amaliyotda elektron tizimdagi xatoliklar, taqdim etilayotgan hujjatlardagi nomuvofiqliklar, vakolatli organlar tomonidan reglamentlarni noto'g'ri talqin qilishlar va axborotning yetishmasligi kabi, hal qilinishi zarur bo'lgan ayrim muammolar ham mavjudligidan ko'z yumilmasligi lozim. Aksincha, rivojlangan davlatlar tajribasini o'rganish orqali, mamlakatimizda ma'muriy hujjatlarni sudgacha ko'rib chiqish tartibotlarini yanada takomillashtirish, amaliyotdagi muammolar tahlili asosida elektron tizimlar ishini muntazam yangilab borish va manfaatdor shaxslarning sohaviy axborotlarni olish imkoniyatlarini kengaytirish zarur.